



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-iyul

VII-12-84-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Kattaqo‘rg‘on tumani IIB boshlig‘i A.Ochilovning joriy yilning o‘tgan II choragida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1-sonli Qarori hamda 2021-yil 26 martdagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-sonli Farmonini ijrosi yuzasidan tumanda jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, profilaktika inspektorlarini faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali tumanda qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24- va 25²-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Kattaqo‘rg‘on tumani IIB boshlig‘i A.Ochilovning joriy yilning o‘tgan II choragida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Ochilov)ga:

tumanda huquqbuzarliklar va jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini chuqur tahlil qilish, aniqlash va shu asosida ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan zaruriy choralar ko‘rish hamda joylarda qonuniylikni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish;

tezkor-qidiruv faoliyati, shaxslarni profilaktik hisobga olish, ular bilan ishlash borasida yo‘l qo‘yilgan jiddiy kamchiliklar bo‘yicha profilaktika inspektorlarining hisobotini eshitish amaliyotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish;

jinoyatlarni kelgusida takrorlanishining oldini olishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilash;

hozirda axborot texnologiyalari, ya'ni internet ilovalari orqali ko'plab sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatlarini (Kiber jinoyatlar) barvaqt oldini olish borasida doimiy ravishda aholini ogohlikka chorlash bo'yicha targ'ibot ishlari kuchaytirish;

jinoyatga qarshi kurashish adolatini ta'minlash orqali jinoyat sodir etgan aybdor shaxslarni aniqlab, ularga nisbatan qonun ustuvorligi va jazo muqarrarligi asosida qat'iy choralar ko'rish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo'limi (A.Ochilov), tuman hokimining o'rinbosari – oila va xotin qizlar bo'limi (S.Djumayeva), Yoshlar ishlar agentligi tuman bo'limi (L.Abduqaxxorov), O'zbekiston Respublikasi mahallalar uyushmasining Kattaqo'rg'on tumani bo'limi (G'.To'ychiyev) mahalla fuqarolar yig'inlari raislari bilan birgalikda:

“Qizil” toifadagi 8 ta (“*Mirzo Ulug'bek*”, “*Javlon*”, “*Charog'on*”, “*Uyshun*”, “*Kadan*”, “*Jizmonsoy*”, “*Yangihayot*” va “*Saroyqo'rg'on*”) mahallalarda olib borilayotgan profilaktik tadbirlarni yanada kuchaytirish hamda profilaktika inspektorlariga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatib borish maqsadida mahallalarni “Sariq”, “Yashil” toifaga o'tkazish choralari ko'rish;

tumanda aholi osoyishtaligi va kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash bo'yicha “Xavfsiz hudud”, “Xavfsiz oila”, “Nazorat”, “Turmush”, “Diqqat piyoda” “Davomat”, “Tig'”, “O'quvchi” “Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni” hamda “Tungi reydy” kabi tezkor-profilaktik tadbirlari doimiy tashkil qilish orqali huquqbuzarliklar oldini olish choralari ko'rish;

jinoyatchilik ortgan mahallalarda targ'ibot ishlarini olib borish va jinoyatga moyil fuqarolar bilan alohida ishlash tizimini kuchaytirish;

er va xotin o'rtasidagi mavjud muammolar, huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari bo'yicha ular bilan yakka tartibda tarbiyaviy ahamiyatga molik suhbatlar o'tkazib borish;

ichki ishlar organida hisobda turgan, ayniqsa, ilgari sudlangan, oilada va turmushda muntazam ravishda huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxslar bilan profilaktik ishlarni olib borish;

“ommaviy madaniyat” niqobi ostida mamlakatimizga kirib kelishi mumkin bo'lgan axloqiy buzuvchi va zo'ravonlik g'oyalarini tarqatuvchi xatarli tahdidlarga qarshi kurashish ishlarini yanada kuchaytirish vazifalari topshirilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (M.Teshayev), Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-27-son Farmoni hamda 2025-yil 3-yanvardagi “2025 yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-1 sonli Qarori ijrosi yuzasidan mas'ullarning hisobotlarini eshitish bo'yicha takliflar kiritib borsin.

5. “Kattaqo'rg'on: kecha va bugun” gazetasi tahririyati (O'.Usmonov), tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov)gaso'nggi vaqtlarda plastik kartalar bilan bog'liq o'g'irlik va firibgarlik kabi kiber jinoyatlar salmog'i sezilarli darajada oshib ketganligi sababli aniq misollar keltirgan holda ommaviy-axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi

(R.Djurayev) va ijrosi Kattaqo'rg'on tumani IIB boshlig'i A.Ochilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH